

O'zbekistonda Chakana Kreditlash Amaliyotini Raqamlashtirish

Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich

TDIU, Bank ishi va investisiyalar kafedrasida professori, i.f.d. Toshkent, O'zbekiston

E-mail: z.mamadiyarov@tsue.uz

ORCID: 0000-0002-1508-488X

Axmedova Dilrabo Qurbondurdi qizi

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dilrabo7335@gmail.com

Annotation. *Jismoniy shaxslarni kreditlash banklarning muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga aholining ehtiyojlarini talabga aylantirish hamda ularning turmush farovonligini oshirishga zamin yaratuvchi vosita hisoblanadi. Shu jihatdan jismoniy shaxslarni kreditlashni tadqiq qilish va uni takomillashtirish, tijorat banklari va mijozlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish hamda iqtisodiy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada jismoniy shaxslarni kreditlashning nazariy jihatlari tadqiq qilingan va tegishli tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Keywords: *jismoniy shaxs, kredit, ipoteka krediti, iste'mol krediti, mikroqarz, chakana kreditlash, qarz yuki, kreditga layoqatlilik, bank kredit siyosati, aholi daromadlari, qarz oluvchining xarid qobiliyati, inflyasiya darajasi, iqtisodiy o'sish, yalpi ichki mahsulot, Markaziy bank.*

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash banklarning muhim daromad manbai bo'lishi bilan birga aholining ehtiyojlarini talabga aylantirish hamda ularning turmush farovonligini oshirishga zamin yaratadi. Shuningdek, mamlakatda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, umumiy qilib YaIM yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning bank aktivlaridagi ulushi 2017 yil 1 yanvar holatiga 11,2 foiz va YaIM dagi ulushi 3,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil 1 holatiga kreditlar qoldig'i 101,0 trln.so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich mos ravishda 18,1% va 11,4 foizni tashkil etgan.¹

O'zbekistonda jismoniy shaxslarni plastik kartalar bo'yicha kreditlash amaliyoti, ya'ni overdraft krediti jismoniy shaxsning (mijozning) daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda o'rtacha oylik ish haqining (pensiyaning) 3 barobarigacha bo'lgan miqdorda 12 oygacha bo'lgan muddatga qayta tiklanadigan (revolver) shaklda, overdraft shartnomasiga muvofiq bosqichma-bosqich qaytarish sharti bilan beriladi. O'z navbatida kreditlash-dagi risklarni boshqarish maqsadida mijoz tomonidan tijorat bankiga overdraft olishga buyurtmanoma bilan birga pasport nusxasi, daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatni (olayotgan ish haqi, pensiya va boshqa daromadlari miqdori to'g'risidagi ma'lumotnomani), eng asosiysi kredit oluvchining o'rtacha oylik ish haqining (pensiyaning) 3 barobarigacha bo'lgan miqdordan ko'p

¹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi.

bo'lmagan miqdorda taqdim etadi. Natijada, hududlarda aholining mobil-banking yoki bank kartalariga asoslangan to'lov amaliyoti oshishiga va to'lov tizimining tezlashishiga olib keladi.²

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari o'rtasida raqobatning rivojlanib borayotganligi, turli mulkchilik shaklida banklarni tashkil etilishi, xususan xorij kapitali ishtirokidagi banklar sonining oshishi banklararo raqobat muhitiga ijobiy ta'sir qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida banklar tomonidan aholiga turli kredit mahsulotlar taklifini oshirishga xizmat qiladi.

Jismoniy shaxslarni kreditlashning taraqqiy etishi va rivojlanishi, kredit munosabatlarini jadallashuviga, kreditlash shakllari va turlarini ko'payishiga, axborot texnologiyalari asosida kreditlashni tashkil etilishi va boshqa shu kabi jarayonlarida ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Bunday sharoitda albatta, tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kreditlashning ham nazariy ham huquqiy jihatlarini tadqiq qilish zaruratga aylanadi. Sababi, bank va mijoz o'rtasida yuzaga keladigan kredit munosabatlarini tashkil etish va shartnomaviy munosabatlarga kirishishda iqtisodiy tushunchalarni to'g'ri talqin qilinishi va qo'llanilishi muhim hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda jismoniy shaxslarni kreditlash asosan ikkita atama bilan qo'llaniladi. Jismoniy shaxslarga ajratiladigan "iste'mol krediti" va "chakana kreditlash" tushunchalaridan keng foydalaniladi. Ushbu tushunchalarning umumiy jihatlari mavjud bo'lsada, ba'zi mualliflar bu tushunchalarni sinonim sifatida ishlatadilar, boshqalari ularni bir-biridan ajratib tushuntirishadi. Bu esa, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, tijorat banklarining jismoniy shaxslarga kredit ajratish amaliyotlarini baholash uchun statistik va tahlil jarayonlarida noaniqliklarni keltirib chiqaradi.

Raqamli kreditlash - bu moliyaviy institutlarga tezroq xizmat ko'rsatish bilan birga unumdorlikni oshirish va kredit foydasini oshirish imkonini beruvchi texnologiya. Bu potensial qarz oluvchilarga butun dunyo bo'ylab istalgan joydan internetga ulangan har qanday qurilmadan kredit mahsulotlariga murojaat qilish imkonini beradi.

Biroq, texnologiyalar rivojlanishi va iste'molchilar talablari rivojlanishi bilan raqamli kreditlash tushunchasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mijozlar banklarda arizalarini ko'rib chiqilishini va qarorlar qabul qilishlarini kutishadi. Hozirda qog'ozsiz xizmat ko'rsatish odatiy holga aylangan va banklar mijozlarga tezlashish uchun odatdagidan tashqari raqamli kreditlash amaliyotlarini taqdim yetishlari kerak. Raqamli kreditlash quyidagi afzalliklarga ega:

1. Ariza topshirish jarayonini soddalashtirish. Mijozlar ma'lumotlarini bitta platformada yig'ish va raqamlashtirish jarayon shaffofligining yaxshilanishi va qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Bank raqamli bank platformasidan foydalanganda, mijoz arizani to'ldirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etganda, butun moliyaviy paket avtomatik ravishda yangilanadi.

2. Kredit ma'lumotlarini raqamlashtirish. Axborot oqimi va unga kirishni raqamlashtirish butun kreditlash jarayoniga katta foyda keltiradi. Bu shaffoflikni yaxshilaydi va ma'lumotlarni tahlil qilish bilan bog'liq qiyinchiliklarni kamaytiradi.

3. Tahlil uchun kreditlash ma'lumotlaridan foydalanish. Kreditorlar va tahlilchilar ko'pincha turli baholar va baholash usullaridan foydalanishadi. Ushbu nomuvofiqliklar ko'pincha noto'g'ri hisob-kitoblarga olib keladi, bu esa noto'g'ri kredit qarorlari va noto'g'ri hisobotlarga olib keladi.

Biroq, raqamli bank platformasiga integrasiyalangan raqamli kreditlash tizimi har bir kredit mahsulotini tez va aniq tahlil qilishi, tasdiqlashi va narxini belgilashi mumkin. Shu bilan birga,

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2017 yil 21 iyuldagi 2900-sonli qarori asosidagi "Jismoniy shaxslarga bank plastik kartochkasi orqali overdraft krediti berish tartibi to'g'risida"gi Nizomi.

kreditlash bilan bog‘liq barcha ma‘lumotlarning bir joyga to‘planishi natijasida, banklar portfel riskini baholash va strategik qarorlar qabul qilishda aniqlik oshadi.

4. Mobil kreditlash xususiyatlari va hujjatlarni elektron imzolashni taklif qilish. Muayyan mijozlar, xususan, mobil telefonlar orqali qarz olishni afzal ko‘radilar, chunki ular kundalik vazifalarining ko‘p qismini telefonlaridan bajarishga odatlangan va kredit olish jarayonlari ham bundan mustasno emas. Ular tegishli hujjatlarni to‘plash, rasmiylashtirish va imzolash uchun jismoniy filiallarga tashrif buyurish bilan bog‘liq qiyinchiliklarni xohlamaydilar.

5. Kam ta‘minlangan yoki kredit olmagan mijozlar uchun kredit variantlarini taqdim etish. Moliyaviy institutlar an‘anaviy kreditlash amaliyotida asosan kredit ballariga tayanadi. Kredit ballari kreditorlarga bo‘lajak mijozning oldingi qarz olish xatti-harakatlarini chuqur o‘rganishni taklif qiladi.³

Boshqa tomondan, raqamli kreditlash qisqa muddatli kreditlar uchun qattiq tekshiruvlardan voz kechishdi. Ular kredit ballariga yoki hech qanday moliyaviy ma‘lumotlarga tayanmaydilar, bu esa birinchi marta kredit oluvchilarga qulay sanaladi.

Bugungi kunda banklar mobil ilovalari yordamida bank mijozlari o‘zlarining mobil qurilmalari orqali kommunal to‘lovlar, uyali aloqa operatorlari uchun to‘lovlar, jismoniy shaxslar nomiga olingan kreditlar uchun to‘lovlarni to‘lash hamda bir plastik kartadagi mablag‘larni boshqa plastik kartaga o‘tkazish imkoniga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, MUNIS to‘lov tizimi orqali turli xil xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar foydasiga to‘lovlarni amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari mobil-bankingda orqali quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

- internet provayder va raqamli televidenielar xizmatlari uchun to‘lovlar, uyali aloqa operator va shahar telefon xizmatlari uchun to‘lovlar, kommunal to‘lovlar, byudjetga to‘lovlar kabi boshqa to‘lovlarni amalga oshirish;
- iste‘mol tovarlari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun bir marotabalik to‘lovlarni amalga oshirish va boshqa to‘lovlar;
- iste‘mol va ipoteka kreditlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish;
- hisobraqamlar holatini ko‘rish va to‘ldirish;
- omonat qoldiqlari va unga hisoblanayotgan foizlar bo‘yicha ma‘lumotlar olish;
- plastik karta bo‘yicha ma‘lumotlar olish, mablag‘larni kartadan kartaga kontaktsiz o‘tkazish, onlayn konversiya, overdraft kredit, onlayn omonat rasmlashtirish va boshqa xizmatlarni ham amalga oshirish mumkin.⁴

Tijorat banklarida jismoniy shaxslarni kreditlashning o‘ziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Kredit miqdorining kichik ekanligi;
2. Jismoniy shaxslarni kreditlashning bir xil andozaga ega ekanligi;
3. Kreditlashni tashkil etishning umumiyligi;
4. Kreditlash tartibining sodda va qulayligi;
5. Kreditning shaxsiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi;
6. Kreditlash jarayonida dastlabki omonatlarni shakllantirilishi;
7. Kredit muayyan maqsadsiz ajratilishi va boshqalar.

³ Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformasiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko‘rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqt. fan. dok. ... diss. Dissertasiya – Toshkent, 2022. – 272 b.

⁴ «Turonbank» ATBining «MyTuron» mobil ilovasi asosida tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kreditlar ajratish har bir bank tomonidan ishlab chiqilgan kredit siyosati, kredit mahsulotlari va modulli kreditlar shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar turlari bo‘yicha qoldig‘i o‘zgarishini ko‘rib chiqamiz.

Tahlil qilingan davrda tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalaridagi ulushi 19% dan 26 foizgacha oshib, 2023 yil 1 yanvar holatiga 100 949 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Mazkur kredit tarkibidan, ajratilgan kreditlarning asosiy qismi ipoteka kreditlari (jamiga nisbatan – 46%) tashkil etgan. Iste‘mol kreditlari (jamiga nisbatan – 25%) va mikroqarz (jamiga nisbatan – 15%) kabi amaliyotlari so‘nggi yillarda o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i o‘zgarishi, (mlrd.so‘m)

Ko‘rsatkich nomi	01.01.2020 y.	01.01.2021 y.	01.01.2022 y.	01.01.23 y.
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i	39 934	54 888	69 496	100 949
Ipoteka kreditlari	20 326	28 301	35 946	46 460
Iste‘mol kreditlari	3 177	5 737	9 429	25 234
Mikroqarz	5 492	12 237	12 795	14 651
Tadbirkorlik faoliyati uchun mikrokreditlar	6 467	8 613	11 326	14 567
Boshqa kreditlar	4 472	0	0	36
Jami kredit qo‘yimalar	211 581	276 975	326 386	390 049
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i, jami	39 934	54 888	69 496	100 949
Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning jami kredit qo‘yilmalaridagi ulushi. %	19%	20%	21%	26%

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hisobot ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlar shartlari va uning qulayligi, kredit olishda turli to‘siqlarning kamayib borayotganligi kreditlash hajmini oshishiga xizmat qilmoqda. Birgina tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar qoldig‘i 2022 yilda (100 949 mlrd.so‘m) 2021 yilga nisbatan (69 496 mlrd.so‘m) 1,45 barobarga yoki 31 453 mlrd.so‘mga oshganligi ushbu holatni tasdiqlaydi.

Raqamli transformasiya qilish natijasida banklarning xizmat ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirish, bank strukturasi qayta ko‘rib chiqish hamda kreditlash jarayonini bir bo‘g‘inli kreditlashga o‘tkazish natijasida:

- mijozlar bilan ishlaydigan xodimlarning ulushini 16-20 %dan 50%gacha ko‘tarishga erishildi (halqaro amaliyotda bu ko‘rsatkich 90% ni tashkil etadi);

- bank binosining mijozlarga xizmat ko'rsatishga ajratilgan qismini 30-40%dan 55%ga oshirildi (halqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 80-90%ni tashkil etadi);
- 1 oyda 1 xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha kreditlar soni 10 tadan 22 tagacha ko'tarildi (halqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 33 tani tashkil etadi);
- mijozlarga yanada qo'laylik yaratish natijasida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatish tizimlaridan foydalanuvchilar salmog'i 11% dan 50%gacha (halqaro amaliyotda bu ko'rsatkich 85% ni tashkil etadi) oshirishga erishildi.⁵

Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini takomillashtirish borasida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga taklif etadigan kredit mahsulot va turlari bo'yicha shartlarni aholiga to'liq tushuntirish. Xususan, kreditning foiz stavkasi, uning to'lanish tartibi va grafigi haqidagi ma'lumotlarni yetkazish.
2. Banklar jismoniy shaxslarga kredit ajratish amaliyotida sun'iy intellektga asoslangan baholash modellaridan foydalanish. Bugungi kunda jismoniy shaxslarni kreditlash jarayonida kreditga layoqatligini baholashning skoring tizimidan keng foydalanmoqda. Skoring baholashni sun'iy intellekt asosida tashkil etish inson omilini kamaytirish bilan birga mijozlarga tezkor kreditlar taqdim etish imkonini beradi.
3. O'zbekiston Respublikasi "Iste'mol krediti to'g'risida"gi 2006 yil 6 maydagi 33-sonli Qonunning 15-moddasida "Moliyaviy iste'mol krediti berish O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlarini (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi korxonaga yoki realizatsiya qiluvchi tashkilotning bankdagi hisobvarag'iga bank yoxud boshqa kredit tashkiloti tomonidan pul mablag'lari o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi" bandida import qilingan tovarlar (xizmatlar) ni kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.⁶
4. Tijorat banklari ish haqi loyihasi doirasida ish beruvchi korxonaning kafilligi asosida kreditlashni kengaytirishi bank daromadlarini oshirishga zamin yaratadi. Shuningdek, bank mahsulotlarini bir nechta mahsulotlarini sotish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2017 yil 21 iyuldagi 2900-sonli qarori asosidagi "Jismoniy shaxslarga bank plastik kartochkasi orqali overdraft krediti berish tartibi to'g'risida"gi nizomi.
2. Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformasiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqt. fan. dok. ... diss. Dissertasiya – Toshkent, 2022. – 272 b.
3. Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformasiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat, Toshkent-2022. – 78 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi 33-sonli Qonuni, 2006 yil.

⁵ Mamadiyarov Z.T. Raqamli transformasiya jarayonida bank xizmatlarini masofadan ko'rsatishning metodologik asoslarini takomillashtirish. iqt. fan. dok. ... diss. Avtoreferat, Toshkent-2022. – 78 b.

⁶ O'zbekiston Respublikasining "Iste'mol krediti to'g'risida"gi 33-sonli Qonuni, 2006 yil.